

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI
O'RGAТИSHNING INNOVATSION USULLARI**

SamDCHTI 2 fakultet

2 bosqichi talabasi

Jamurodova Marjona Bobir qizi

Ilmiy rahbar:N.N.Zubaydova

marjonajamurodova@gmail.com

Tel;998939998052

ANNOTATSIYA :*Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rGANISHGA bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida ingliz tili o'rGAтиSHNING samarali, zamONAVIY va innovatsion metodlari haqida to'xtalib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Qiziqarli o'yinlar, zamONAVIY metodlar, ko'rgazmali qurollar, amaliy mashg'ulotlar, qiziqarli mashg'ulotlar.*

Kirish

Vatanimiz mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatimizda chet tillarini o'rGANISHGA katta e'tibor berilmoqda. Shu sababli yoshlarning chet tillarini o'rGANISHGA bo'lgan qiziqishi yanada oshmoqda. Shuningdek hozirgi kunda ham davlatimiz tomonidan til o'rGANISHGA ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirgi kunda nafaqat muktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va turli sohada ishlovchi xodimlarga ham chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rGAтиSH yo'lga qo'yilgan. Bugungi rivojlanayotgan davrda chet tillarini o'rGANISH hozirgi zamon talabi hisoblanadi.

TIL O'RGAтиSHNING ZAMONAVIY METODLARI

Bilim olish har bir insonning yosh davrlariga bog'liq. Psixologlarning fikricha, yosh bolalar katta yoshdagi kishilarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Buning asosiy sabablari esa bolalarda til o'rGANISHGA bo'lgan moyillik, ulardagu taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi,kattalarga qaraganda

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bolalar vaqtining ko'pligidir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shu sababdan kichik yoshdagi o'quvchilarga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik lozim. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va til o'rganishiga bo'lgan qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shuning uchun kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish ancha murakkab va mas'uliyatli. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

-Qo'shiq yoki she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan harf yoki birikmalarни kuyga solib o'rgatish.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali va qiziqarli ekanligini ko'rsatish mumkin.

-Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar. Bunga misol qilib, bolalarning inson bajaradigan ish-harakatlarni ingliz tilida o'rganishda jismoniy harakatlar orqali o'rganish mumkin.

- Multfilmlar; Kichik yoshdagi til o'rganuvchilari ingliz tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l hisoblanadi.

- Rol ijro etish (role play) metodi; o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Masalan: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi ushbu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi lozim.

- Mavzuga oid muhit; O'qituvchi o'tishi kerak bo'lgan mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot

beradi.Bu esa o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytirishga, dunyoqarashini o'stirishga hizmat qiladi. Shuningdek ushbu usul o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanayam yuksaltiradi.

- amaliy mashg'uIotlar(mevalar va boshqa oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, gullarni hidlab ko'rish); Masalan: o'qituvchi bir o'quvchining olmani tatib ko'rishi paytida uning rangi qizil(red) yoki yashil(green), ta'mi shirin(tasty) va shu kabj ma'lumot berishi va boshqa o'quvchilarga ham mevalarni yedirib, u bolalardan o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini talab qilishi lozim.Bu hol bolaning keyingi o'rganishlarida ham yordam beradi.O'qituvchi o'quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, bola darrov meva yegan paytini eslaydi, qizil-red, yashil-green ekanligini tez xotirlaydi. Demak, bunday usuldan foydalanish o'quvchining ma'lumotni uzoq muddatda xotirasida saqlab qolishini ta'minlaydi.

- ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali;

– yangiliklar orqali; Bolalar qiziquvchan bo'lishadi. Ular bir xillikdan tez zerikadi. Shu sababli ularga har doim bir turdag'i usullardan foydalanib dars o'tish emas, balki bunday metodlarni o'zgartirib, yangilab dars o'tish zarur. Aks holda bolalar o'qituvchining qanday dars o'tishini fahmlab olishadi va bunga tayyorgarlik ko'rishadi. Usullarni yangilab dars o'tish bolalarning intilishlarini oshiradi.

-har doim o'quvchilarni rag'batlantirish; Kichik yoshdagi til o'rganuvchilarga chet tilini o'rgatishning ushbu usuli samarali metodlardan biri hisoblanadi. Rag'bat olgan o'quvchi yanada ko'proq rag'bat olish uchun ko'p harakat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tili o'rgatishni majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi va bu mamlakat taraqqiyotiga ham o'z hissasini qo'shamadi. Bolalarga chet tillarini o'rganish qanchalar muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borilishi ularning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Kenjaboyev A., Salomova G., Sohibov B. Masofaviy o‘qitishning pedagogik asoslari. // «Zamonaviy ta’lim», 2014, 10-son. -3–7-b.
2. Kenjaboyev A., Kenjaboyev J. Tarbiya texnologiyasi va uning dolzarbliji. // «Zamonaviy Ta’lim», 2015, 4-son. -61–64-b.
3. Saidaxmedov N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan», 2006.
4. Tolipov U.K., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyaning tatbiqiyl asoslari. – T.: «Fan», 2006.